

ILMIY USLUB VA ILMIY-OMMABOP MATN

Muzaffar Turamirzayevich Tadjibayev

abdugaffor16@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Annotatsiya: Maqolada axborot, uning turlari, ilmiy uslub va uning turlari bo'lgan sof ilmiy uslub, ilmiy texnikaviy uslub va ilmiy-ommabop uslub, ularning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan. Ularga turli tilshunos olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Ilmiy-ommabop matn haqida alohida to'xtalib o'tilgan. Muallif matnlarga namunalar keltirgan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: axborot, ilmiy uslub, ilmiy matn, ilmiy-ommabop matn, ilmiy publisistik uslub, matn, termin, bayon

KIRISH

Soat sayin rivojlanib yangilanib borayotgan axborot texnologiyalari qurilmalari axborotning har qanday shaklini jamiyatning barcha tabaqalariga qulay va ommabop qilib qo'ydi. Sanoqli yillar oldin faqatgina tor doira mutaxassislarigagina ma'lum bo'lgan ilmiy atamalar hozirgi kunda keng doiralarda istifoda etilmoqda. Smartfonlar, planshetlar, raqamli televidenie, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan ilmiy axborotlar tilda ilmiy-publisistik, ilmiy-ommabop kabi ilmiy uslubning yangi tarmoqlari paydo bo'lishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy matn va ilmiy matn turlariga tilshunos olimlar tomonidan turlicha izohlar berilgan. Rus tilshunoslari N. S. Valgina, M. P. Senkevich, M. N. Kojina, D. E. Rozental, L. K. Graudina, o'zbek tilshunoslari A. Shomaqsudov, I. Rasulovlar ilmiy matnni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarini olib borishgan. Masalan A. Shomaqsudov 1983 yilda nashr etilgan O'zbek tili stilistikasi kitobida ilmiy uslub va ilmiy matn turlari haqida o'z fikrlarni keltirib o'tgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada axborot va uning turlari, uslub, ilmiy uslub va unga mansub bo'lgan ilmiy ommabop matnlar haqida so'z yuritilgan. Ularnin asosiy tarkibiy omillari, o'ziga xosliklari va turlari tavsiflanadi. Ilmiy matn turlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi va tilshunos olimlarning bu boradagi berga fikrlari solishtirildi. Ilmiy matn turlari o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Axborot atamasiga O'zbek milliy ensiklopediyasida quyidagicha ta'rif berilgan. “Axborot - bu olamdagi butun borliq, undagi ro'y beradigan xodisalar va jarayonlar qaqidagi xabar va ma'lumotlardir [1].”

The American Heritage dictionary of the English language lug'atida axborotga “O'qish, tajriba yoki ko'rsatmalardan va muayyan hodisa yoki vaziyatdan olingan bilim” - deb izoh beriladi [2].

Rus tilshunosi N.S.Valgina axborotni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Bilimning empirik darajasiga mos keladigan faktlarga asoslangan axborot;
2. Bilimning nazariy darajasiga mos keladigan konseptual va faraziy axborot;
3. Axborotni o'zlashtirish usullarini tavsifini o'z ichiga oladigan uslubiy axborot;
4. Hissiy, axloqiy va estetik kategoriyalarga aloqador axborot;
5. Ma'lum bir hatti harakatlarga yo'naltirishni nazarda tutuvchi instruktiv axborot [3].

Sanab o'tilgan axborot turlari har xil turdagi matnlarda alohida yoki barchasi birgalikda bo'lishi mumkin. Masalan, ilmiy matnlar ko'pincha faktik, nazariy va faraziy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Axborotning faktik va estetik turlari adabiy matnlarga xosdir. Uslubiy ma'lumotlar o'quv-uslubiy matnlardir.

Tilshunoslar uchun ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lgan ilmiy uslub, birinchi navbatda ilmiy, ilmiy-texnik va ommabop fan sohasida ishlatiladigan o'ziga xos nutq texnikasi to'plami bo'lib, mazmun va maqsadda turli g'oyalar, farazlar va yutuqlarni ifodalash va shakllantirish uchun ishlatiladi.

O'zbek tilshunosi Anvar Shomaqsudov 1983 yilda nashr etilgan O'zbek tili stilistikasi kitobida ilmiy uslub haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi.

“Ilmiy uslub (yoki ilmiy bayon uslubi)da tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi, tushuntiriladi. Bu uslub o'zining alohida maxsus vazifaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ilmiy uslub ilmiy terminologiya bilan bog'liq. Odatda terminlar ilmiy uslubning so'z boyligini tashkil qiladi. Lekin ilmiy asarlar tili faqat teriminlardangina tashkil topmay, unda neytral leksika va ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'lgan umumxalq so'zlari ham keng qo'llanadi [4].”

Ilmiy matn - bu his qilish va baholash uchun tegishli malakaga ega bo'lgan kishilar doirasi uchun yaratilgan tadqiqot faoliyati yoki faoliyat natijasi. Buni iloji boricha informasion qilish uchun muallif yozma nutqning maxsus vositalari va materiallarni taqdim etish usullarini qo'llashi kerak. Ko'pincha, ilmiy matn - nashr etilgan yoki chop etishga mo'ljallangan ish. Ilmiy matnlar ba'zan og'zaki taqdimot uchun maxsus tayyorlangan materiallarni, masalan, konferensiya yoki akademik ma'ruza hisobotlarini ham o'z ichiga oladi.

Ilmiy uslubning xarakteristik xususiyatlari - ohang, obyektiv yondoshuv va axborotning betartibliigi, matnning tuzilishi, terminologiyaning mavjudligi va olimlar o'rtasida materiallarning mantiqiy va yetarlicha taqdim etilishi uchun qabul qilingan maxsus til vositalaridir.

Ilmiy uslubdagi asarlarning yozma shaklining tarqalishi ularning mazmuni va dizaynining haqiqiyliigi, vaziyati, aniqligi bilan belgilanadi.

Ilmiy matnlarni turlari bo'yicha taqsimlash, birinchi navbatda, ko'p fanlarda tasvirlangan obyektlardagi farqlar, olimlar tadqiqot faoliyatlarining mazmuni, potensial auditoriya istiqbollari bilan izohlanadi. Ilmiy matnlarni ilmiy-texnik, ilmiy-gumanitar, ilmiy -tabiiy turlarga ajratadigan asosiy xususiyatlar mavjud. Ularni yana har bir fanga tegishli bo'lgan algebra, botanika, siyosatshunoslik kabi subkategoriyalarga bo'lish mumkin.

M.P.Senkevich yozma matnning ilmiylik darajasiga ko'ra ilmiy uslub turlarini tuzdi va ularni quyidagi tiplarga ajratadi:

1. haqiqiy ilmiy uslub (akademik) tor doiradagi mutaxassislar uchun mo'ljallangan va mualliflik monografiyalari, maqola va ilmiy ma'ruza kontsepsiyasini o'z ichiga olgan jiddiy asarlar uchun xosdir.

2. Ilmiy natijalarni taqdim etish yoki umumlashtirish maqsadida yozilgan ikkilamchi axborot materiallari (tezislar, izohlar). Ular ilmiy-informasion yoki ilmiy-xulosaviy uslubda yaratiladi.

3. Ayrim reklama va ilmiy sohalarida muayyan mahsulotlarning o'ziga xos afzalliklarini aks ettiruvchi sanoat reklamasi - unda texnologiya, elektronika, kimyo, farmakologiya va boshqa ilg'or ilm sohalaridagi yangi yutuqlar aks etgan bo'ladi.

4. Ilmiy ma'lumotnomalar shaklidagi matnlar (ma'lumotnomalar, to'plamlar, lug'atlar, kataloglar va boshq.) O'quvchilarga juda aniq, qisqartirilgan, asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi.

5. Ta'limda qo'llaniladigan ilmiy adabiyotlar, bunda fan bazalari bo'yicha yaratilgan va illyustrativ elementlar va materiallar (turli ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari) beradi va matnga didaktik komponentlar qo'shilgan bo'ladi.

6. Ilmiy-ommabop adabiyotlar taniqli kishilarning tarjimai holini, turli hodisalarning kelib chiqishi tarixini, voqealar, kashfiyot va ixtirolarning kelib chiqishini taqdim etadi va illyustrasiya, misollar, tushuntirishlar orqali keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangandir.

An'anaviy amaliy stilistikada ilmiy uslubning mavjudligi umume'tirof etilgan. Ammo uning subkategoriyalarining soni va o'ziga xos jihatlari bir biridan juda farq qiladi. Masalan, ilmiy uslub doirasida M.N.Kojina uchta asosiy kichik uslubni ajratib ko'rsatadi: haqiqiy-ilmiy, ilmiy-o'quv va ilmiy-ommabop [5]. D.E.Rozental esa ularni ilmiy-ommabop, ilmiy ish uslubi, ilmiy publisistik, ilmiy-texnikaviy, ilmiy o'quv kabi taguslublarga bo'ladi [6].

L.K.Graudina muharrirligida oliy o'quv yurtlari uchun nashr etilgan “Rus tili nutq madaniyati” darsligida ilmiy uslubning haqiqiy ilmiy, o'quvilmay o'quv, ilmiy-informativ, ilmiy-ommabop, ilmiy-ma'lumotnoma kabi turlarini beradi [7]. Ko'p jihatdan, bu taguslublarni ajratish mezonlarining noaniqligi bilan bog'liq. Ilmiy-ommabop matnning stilistik maqomi hozirgacha tilshunoslikda ilmiy munozaralar mavzusi bo'lib qolayotgani bejiz emas. Ba'zi olimlar bu matnlarni ilmiy-ommabop uslublar deb hisoblashsa, boshqalari nutqning bu turini mustaqil amaliy uslub deb hisoblashadi. Shu bilan birga, ilmiy ommabop taguslubni ajratib ko'rsatishning asosiy sababi an'anaviy ravishda ilmiy matnning professional bo'lmagan shaxsga yo'naltirilganligidadir.

Ilmiy-ommabop matn - fan asoslari, fan, madaniyat va amaliyotdagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar bo'yicha materiallarni o'z ichiga olgan, bilimlarni keng afkor ommaga tarqatish va mustaqil o'qib o'rganishga mo'ljallangan nutqning shaklidir.

Ilmiy-ommabop matnlarning maqsadi ilmiy faktlar va ma'lumotlarni, ya'ni, ilmiy bilimlarni keng o'quvchilar doirasi uchun ochiq shaklda, nafaqat ma'lumotni tushunarli taqdim etishni, balki ushbu taqdimotga qandaydir hissiyot va tasvirni berishni ham nazarda tutadi. Uslubning emosiionalligi va obrazlilik matnni jonlantirishga, o'quvchini qiziqtirishga, uning e'tiborini muayyan faktlar va xulosalarga qaratishga yordam beradigan, shuningdek, muallifga o'z fikrini ifoda etishga imkon beradigan turli xil stilistik vositalar orqali o'quvchilarning qiziqishi, diqqat-e'tibori va ishonchini qozonadi va shu munosabatda tushunish mumkinki, ilmiy-ommabop matn ilmiy uslub va badiiy uslub o'rtasida ma'lum bir bo'shliqni egallaydi, chunki kognitiv mazmun, aniqlik, ravshanlik va ilmiy faktlarni tavsiflashning va uni taqdim etishning ilmiy uslubi bilan umumiy bo'lib, badiiy adabiyotdagi hissiylikni, tasvirni, sub'ektiv baholashni, bayonni birlashtiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, obyektiv mazmun sub'ektiv usullar va ifoda vositalarida berilishi mumkin.

Ilmiy-ommabop matnning asosiy funksiyalaridan biri kommunikativlikdir, shuning uchun muallif matnni o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda yaratadi.

Quyidagi jadvalda ilmiy matn matn turlariga e'tiborimizni qaratamiz.

Ilmiy matematik	Ilmiy texnik	Ilmiy-ommabop
1-qismdagi R radiusli shar hajmiga mos keluvchi suv uchunchi qismda o'lchami kR ga teng bo'lgan kubning 1/6 qismini ifodalaydi. R va kR o'lchamlar suvli hisoblagichda aniq ko'ringanligi sababli, k o'zgarmasni topishimizga imkon tug'iladi [8].	Yuqorida qayd etilgan alternativ usullar orasida metan (tabiiy gaz)ni oraliq mahsulot metilxlorid orqali etilenga aylantirish eng istiqbolli usul hisoblanmoqda. Metilxloridni katalitik piroliz qilib C2-C4 alkenlar olishda hozirgi vaqtda yuqori kremniyli seolitlar yuqori katalitik faollikka ega [10].	Tinbergen ona g'ozlar nafaqat tuxumlarni, balki uyasi yaqinilagi billiard sharchasi yoki shisha lampasi kabi boshqa har qanday dumaloq obyektlarni ham o'z uyasiga olib ketishiga guvoh bo'ldi. Yumaloq obyekt qanchalik katta bo'lsa, g'oz uni uyasiga olib ketish uchun shunchalik ko'proq urinadi [9].

Ilmiy uslubning taguslublari bo'lgan ilmiy texnik, ilmiy matematik va ilmiy-ommabop matnlarda o'ziga xos farqlar bor. Bu tafovutlar bayon qilish uslubi va foydalanilgan leksik birliklarda ko'rinadi. Binobarin, bu uslublar ilmiy uslubning ko'rinishlari bo'lgani uchun, ularda ilmiy uslubga xos umumiy xususiyatlar mavjud.

XULOSALAR

Maqolada axborot va uning turlari, uslub, ilmiy uslub va unga mansub bo'lgan ilmiy-ommabop matnlar haqida qisqacha ma'lumot berildi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tgan asrning yigirmanchi yillaridan boshlangan fan va texnikaning jadal rivojlanishi jamiyatda axborotning qiymati, miqdori, o'rni va ko'lami keskin oshishiga sabab bo'ldi. Bu o'z navbatida erishilgan ilmiy bilimlarni jamiyat a'zolariga yetkazish zaruratini tug'dirdi. Shu tariqa ilmiy uslubning yangi tarmog'i - ilmiy ommabop uslubning paydo bo'lishiga zamin yaratildi. Maqolada foydalanilgan manbalardan ko'rinib turibdiki o'zbek tilshunosligida ilmiy-ommabop uslub tadqiqi alohida yangi tadqiqotlarga mavzudir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти. – Т. 2005. 1-том. 812-бет.
2. The American Heritage dictionary of the English language. Third edition.
3. Валгина, Н.С. Теория текста / Н.С. Валгина. // М.: Логос, 2003. – 191 б.
4. Ўзбек тили стилистикаси А. Шомаксудов ва бошқ. Ўқитувчи, Т. 1983. 24-б.
5. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. М., 2008. 84 б.
6. Розенталь Д.Э. Справочник по русскому языку, Практическая стилистика. М., 2001. 381 б.
7. Граудина Л.К. Культура русской речи. М., 2001. – 195 б.
8. НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ 2020 йил 12-сон 10 б.
9. Ж. Клир Атом одатлар. Asaxiy Books Т. 117 б.
10. “Фан ва технологиялар тараққиёти” Илмий–техникавий журнал №3/2021 41 б.
11. Tadjibayev, M. (2023). ILMIY-OMMABOP MATNLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(23), 341-345.
12. TADJIBAYEV, M. (2024). ILMIY-OMMABOP MATNDA MUQIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI. «АКТА NUUZ», 1(1.1), 288-291.
13. Tadjibayev, M. (2024). Pragmatic-functional importance of translation of titles and headlines in popular science texts. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 2(1), 8. <https://doi.org/10.47134/pssh.v2i1.279>
14. Tadjibayev, M. (2024). Pragmatic-functional importance of translation of titles and headlines in popular science texts. Konferensiyalar | Conferences, 1(2), 1166–1167. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1266> (uzresearchers.com)
15. ДОСБАЕВА, Н. Т., & ДОСБАЕВА, Н. Т. (2020). ТАРЖИМАЛАР ТАҲЛИЛИДА ҚОДИРИЙ “АНДИША” ЛАРИ.
16. Dosbaeva, N. (2019). ABOUT HARMONY OF LINGUISTIC AND CULTURAL APPROACHES IN TRANSLATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1).
17. Dosbaeva, N. T. (2020). Culture-bound words in linguocultural analysis of literary translation (By the example of the translation versions of the novel "Bygone Days" by Abdullah Qadiri). International Journal of Research in Social Sciences, 10(8), 429–439. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.00650.3>